

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

SAYIPOVA DILAFRUZ RAHIMOVNA

**“BOBURNOMA”DA TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI VA TALQINI
(ijodkor va hukmdor shaxslar misolida)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Sayipova Dilafruz Rahimovna

“Boburnoma”da tarixiy shaxslar tasviri va talqini
(ijodkor va hukmdor shaxslar misolida) 3

Сайипова Дилафруз Рахимовна

Изображение и интерпретация исторических личностей в «Бабурнаме»
(на примере творцов и правителей)..... 23

Sayipova Dilafruz Rakhimovna

Depiction and interpretation of historical images in “Boburnoma”
(in the example of creator and ruler characters)..... 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.02.11 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

SAYIPOVA DILAFRUZ RAHIMOVNA

**“BOBURNOMA”DA TARIXIY SHAXSLAR TASVIRI VA TALQINI
(ijodkor va hukmdor shaxslar misolida)**

10.00.02 – O‘zbek adabiyoti

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Fil1581 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sulaymonov Isroil Isomiddinovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qobilov Usmon Uralovich
filologiya fanlari doktori, professor

Radjabova Burobiya
filologiya fanlari nomzodi, yetakchi ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/05.2023.Fil.02.11 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "25" sentabr soat 14 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40; e-mail: rector@samdu.uz Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Bosh o'quv binosi, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (83 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 239-11-40, 239-18-92; faks: (8366) 239-11-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "13" sentabr kuni tarqatildi.
(2024-yil "13" sentabr kuni 12 -raqamli reyestr bayonnomasi).



M.Q.Muhiddinov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

D.B.Xursanov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Sh.A.Hasanov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi ilmiy seminar raisi filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida adabiy-tarixiy asarlardagi tarixiy shaxslar portreti, xarakteri, psixologiyasi, milliy an'analar mujassamligi, davr voqeligining yoritilishiga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ayniqsa, mumtoz adabiyot zamirida shakllangan nasriy asarlardagi muallif uslubi, obraz tanlash mahorati, adabiy va ilmiy muhit, madaniy hayot, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni ochib berish bugungi adabiyotshunoslik oldidagi vazifalardan biri hisoblanmoqda. Shu bois tarixiy nasriy asarlarda ijodkor psixologiyasi, makon va zamon aniqligi, qiyofa yaratish san'ati, ijodkor shaxsi, uning hasbi holi, mavqeyini ko'rsatishda muallifning munaqqid sifatida yondashuvdagi munosabati, ularni ochib berishdagi xolislik tamoyillarini aniqlash dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyo adabiyotshunosligida tarixiy-nasriy asarlardagi adabiy muhit, adabiy-tanqidiy qarashlar, ijodkor shaxslar tasviri, adabiy janrlar taraqqiyoti, hukmdorlar adabiy portretini ifodalashda muallif mahoratini yoritish, tasviriy vositalarni qo'llash mahorati, badiiy til me'yorlarini saqlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Tarixiy asarlarni o'rganish, mohiyatini ochib berish, uni keyingi avlodga yetkazish, janrlar rang-barangligini asoslash asosiy vazifalardan biriga aylanmoqda. Ularda ifodalangan til me'yorlari, hukmdor shaxslar ruhiyati, ijodkorlar badiiy olami, ijtimoiy muhit tasviri, uslub masalasi, muallif shaxsiyati, janrlar takomillashuvi, tarixiy joy nomlari, so'zlarning etimologiyasi, madaniyat, tarjimashunoslik, adabiy-nasriy asarlar shakllanishini ilmiy yoritish zamonaviy adabiyotshunoslikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda adabiyot va ma'naviyatga katta e'tibor qaratilmoqda, o'zbek adabiyotining mumtoz namunalarini yangicha ruhda yoritish asosiy maqsadlardan biriga aylanmoqda. "Xalqimizning qadimiy tarixi va boy madaniyatini tiklash, buyuk allomalarimiz, aziz-avliyolarimizning ilmiy, diniy va ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish"¹ muhim vazifalardan sanaladi. Shu bois "Boburnoma"da adabiy muhit, adabiy tanqid hamda ijodkor va hukmdor shaxslar tasvirini ifodalashda muallif mahoratini o'rganish, ijodkor individual uslubining yuzaga kelishida adabiy an'analarning ahamiyati, poetik mazmundagi novatorlik, ijodiy maktablarning shakllanishi, she'riy san'atlar va aruz vazni an'analarni qo'llash borasidagi izlanishlarni yoritib berish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida" Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-sonli "O'zbek mumtoz va zamonaviy

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2017 йил 24 майдаги ПҚ-2995- сонли «Қадимий ёзма манбаларни сақлаш, тадқиқ ва тарғиб қилиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори // Халқ сўзи, 2017 йил 25 май.

adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi hamda boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida, xususan, Yevropada "Boburnoma"ga oid tadqiqotlar XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Yevropalik olimlar, jumladan, J.Leyden, V.Erskin, L.U.King, R.M.Kaldekot, F.G.Talbot, S.Leyn-Puul, E.Holden, M.Elfinston, G.M.Elliot, A.Denison Ross, V.X.Morleand, A.S.Beverij, A.de Long-Per, A.J.Klaport, J.Dranjete, Pave de Kurteyl, Jan-Pol Ru, Lui Bazen, Jan-Lui Bake Grammon, Ahmad Ali Ko'hzod, Abdulhay Habibi, Shafiqa Yorqin, Gulchin Maoniy, Zokir Husayn, Nurul Hasan, Muni La'l, M.Haydar, S.P.Sharma, H.Lemb, U.Tekston, Temur Xamit, Bayuzak Kojabek o'g'li, Rashit Rahmati Arat, Bilol Yujel, Eyji Mano kabi olimlarning xizmatlari beqiyos. "Boburnoma" tadqiqi va o'rganilishida rus olimlari I.V.Stebleva, A.N.Samoylovichlarning² ishlari ham juda muhim manba bo'lib, ularning ishlarida asardagi joy nomlari hamda tarixiy shaxslar haqida so'z boradi.

"Boburnoma" asarining o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishiga XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab alohida e'tibor qaratila boshlandi. Asarni o'rganish, uni tadqiq etish, uning badiiy xususiyatlari, tarixiylikni tasvirlashda muallif uslubining o'ziga xosligi kabi masalalarni maxsus ilmiy tadqiq etishda o'zbek olimlari: A.Fitrat, M.Shayxzoda, P.Shamsiyev, S.Mirzayev, S.Azimjonova, V.Zohidov, H.Yoqubov, S.Jamolov, A.Qayumov, B.Valixo'jayev, A.Abdug'afurov, G'.Salomov, N.Komilov, S.Hasanov, N.Otajonov, H.Qudratullayev, S.Jalilov, R.Vohidov, Yo.Is'hoqov, I.Haqqulov, H.Boltaboyev, X.Sultonov, V.Rahmonov, Sh.Rustamxo'jayev, A.Ibrohimov, N.Nizomiddinov, E.Ochilov, Z.Xolmanova, D.Hoshimova, R.Karimov, M.Abdullayeva,

² Leyden John. *Memoirs of Zehir-Ed-Din Muhammed Baber: Babur Emperor of Hindustan.* – London.,1826. – 432 p; Бобур З.М. Бобурнома. Инглизчадан А.Кайзер таржимаси. – Лейпциг,1828. Паве Де Куртейл. Бобурнинг эсдаликлари. – Париж, 1871. Boburnoma. Hindiston imperatori Zahiriddin Muhammad Boburning o'z qo'li bilan chig'atoy va turkiy tilda yozgan xotiralari. J.Leyden va V.Erskinlar tarjima qilgan. Dublin universitetida arab va fors tillari fakultetining professori hind tarixi mutaxassisi janob Dyukas Uayt King sharhlagan va to'ldirgan. Beveridge, Anette Susannah. *The Babur-nama in English. Emperor of Hindustan Babur.* – London, 1921. – 880 p; Калдекот Р.М. Бобур хаёти (Ҳиндистон императори). Қисқартирилган таржима. (инглиз тилида). – Лондон, 1845. Талбот Ф.Ж. Ҳиндистон императори Бобурнинг эсдаликлари. Қисқартирилган таржима. (инглиз тилида). – Лондон, 1879. Бобуршоҳ Заҳириддин Муҳаммад. Вақоийъ. 1-нашр. –Ал-Қоҳира, тарж. Магда Малфу. Дорул офоқ ул- арабийа. 2013. – 747 б. The Baburnoma. *Memories of Babur. Prince and Emperor.* Translated, edited and annotated by Wheller M. Thackston. – Нью Йорк, Оксфорд, 1996. – 432 p. Dale, S.F. *The Garden of the Eight Paradises. Bobur and the Culture of Empire in Central Asia, Afghanistan and India (1483-1530).* 2004.ISBN 90 04 13707 6. Zahiruddin Muxammad Babur. *Vekayi. Babur'in hatiroti.* Cild I-II. – Ankara, 1944-1946. Mirza Nasriddin Ko'ragoniy. *Tarjimayi tuzuki Baburiy.* – Karaci, 1962. Rashid Axtar Nadviy. *Tarjimayi tuzuki Boburiy.* – Lahur, 1965. Бобурнома. (хиндий тилда). – Дехли, 1974. Zahir Ad-din Muhammad Babur. *Babur-nama.(Vaqayi).* Critical edition based on four chagatay text woth introduction and notes by Eyji Mano. Kyoto, Syokado, Printed by Nakanishi Prining Co., LTD Kyoto. – Japan, 1995-1998.

I.Sulaymonov, E.Hazratqulovalar³ izlanishlar olib borishgan. Biroq ushbu tadqiqotlarda ham “Boburnoma”dagi an’ana va novatorlik borasidagi izlanishlar, ijodkor va hukmdorlar xarakterini yoritish to’liq tadqiq etilmaydi. Muammoning batafsil o’rganilmaganligi bu borada maxsus tadqiqot olib borishni taqozo etadi..

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog’liqligi. Tadqiqot Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Alisher Navoiy ijodi va adabiy ta’sir masalalari” mavzusidagi ilmiy yo’nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “Boburnoma”da tarixiylik va badiiy talqin masalasi hamda tarixiy voqelik va tarixiy shaxslar tasvirida muallif uslubini ochib berishdan iborat.

³ Фитрат. Ўзбек адабиёти намуналари. 1-жилд. – Т.: Ўздавнашр, 1928. – 43 б; Максуд Шайхзода. Асарлар. 6 жилдлик, 5-жилд. Заҳириддин Бобир. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги бадий адабиёт нашриёти, 1973. – 327 б; Бобир. Асарлар / Нашрга тайёрловчилар П.Шамсиев, С.Мирзаев. Уч жилдлик. – Т.: Фан, 1965-1966; Бобир. Бобирнома / Нашрга тайёрловчи П.Шамсиев. – Т., 1960; Бобир. Танланган асарлар / Нашрга тайёрловчилар С.Азимжонов, А.Қаюмов. – Т.: 1958; Азимджанова С. Индийский диван Бабура. – Т.: Фан, 1966. – 76 с; Ферганский удел Омар-Шейха и Бабура (в XV и начале XVI вв). Филология фанлари номз. ... дис. – Т., 1949; В. Зоҳидов. Бобирнинг фаолияти ва илмий-адабий мероси ҳақида // Бобир. Бобирнома. – Т., 1960; Ҳ.Ёқубов. Бобир. – Т., 1941; Адабий мақолалар. –Т.; Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1970. – 366 б; Жамолов С. О художественных особенностях «Бабура-наме». Филология фанлари номз. ...дис. – Т., 1961; А.Қаюмов. Асарлар. 5-жилд. –Т.; Мумтоз сўз, 2009. – 303 б; Б.Валихўжаев. Заҳириддин Муҳаммад Бобир. // Ўзбек адабиёти тарихи. Беш жилдлик. 3-жилд. – Т., 1978. – 380 б; Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. Заҳириддин Муҳаммад Бобурнинг адабий танқидий қарашлари. – Т., 1993; Мумтоз сиймолар. Сайланма. 2 томлик. (2-том Заҳириддин Муҳаммад Бобурга бағишланган). –Т.: Халқ мероси нашриёти, 2002; Бобурнома улкан асар намунаси. Ўзбек насри тарихи. –Т., 1982; Бобур. Девон / Нашрга тайёрловчи А.Абдуғафуров. – Т.: Фан, 1994; Ғайбуллоҳ ас-Салом, Отажон Н. Жаҳонгашта Бобурнома. – Т.: Фан, 1996; Н.Отажонов. Бадий таржима ва илмий шарҳ. –Т.: Билими жамияти, 1978. – 26 б; Бобур. Мубаййин / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Т., 2001. – 182 б; Ҳасанов С. Бобурнинг Рисолаи аруз асари. – Т.: Ўқитувчи, 1986. – 274 б; Бобир. Мухтасар / Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Т.: Фан, 1971. – 241 б; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. Нашрга тайёрловчи С.Ҳасанов. – Т., Шарқ, 2002; Заҳириддин Муҳаммад Бобур. –Т.: O‘zbekiston, 2011. – 84 б; Н.Отажонов. Бобурнома жаҳон адабий жараёнида: қиёсий-типологияк таҳлил: Филология фанлари докт. ...дис. – Т., 1994; Ҳ.Қудратуллаев. Бобурнинг адабий-эстетик олами. – Т., Маънавият, 2018. – 271 б; Бобурнинг давлатчилик сийсати ва дипломатияси. – Т.: Шарқ, 2011. – 431 б; Бобур армони. – Т.: Sharq, 2009. – 383 б; Бобурноманинг тарихий-адабий ва услубий таҳлили (Навоий, Бобур, Хондамир ва Восифий насрининг қиёсий таҳлили): Филология фанлари. докт. ...дис. – Т., 1998; Бобурнинг адабий-эстетик қарашлари. – Т.: Фан, 1983; С.Жалилов. Бобир ва Юлий Цезар. –Т.: Янги аср авлоди, 2001; Воҳидов Р. Биз билган ва билмаган Бобур. Адабий ўйлар. – Т.: Маънавият, 1999; Ё. Исоқов. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. – Т., 2002; Заҳириддин Муҳаммад Бабура. Бабуриды библиография. Тузувчи-муаллиф Ш.Ш.Рустамхўжаев. – Москва: Издательство восточной литературы, 2016. – 1180 б; А. Иброҳимов. Бобурийлар мероси. – Т.: Фан, 1998; Ҳ. Болтабоев. Мумтоз сўз кадри. – Т.: Адолат, 2004. – 138 б; Хайридин Султонов. Бобурийнома. – Т.: Маънавият, 2019. – 463 б; Раҳмонов В. Бобурнома. Ҳозирги ўзбек тилига мослаштирилган таҳлил. – Т., 2008. Шоҳ, адиб ва шоир. З.М.Бобур. Бобурнома китобида муқаддима. – Т.: Ўқитувчи, 2008. – 287 б; Низомиддинов Н. Қадимги Ҳиндистон тарихи, диний эътиқоди ва маданияти. – Т.: Фан ва технология, 2014. – 461 б; Буюк бобурийлар тарихи (XVI-XIX аср). Монография. –Т.: Fan va texnologiya, 2012; Д. Салоҳий. Бобурнинг буюк эътиқоди. – Самарқанд, 2019. – 88 б; Жабборов Н. Султонларнинг сараси / Маърифат надир. – Т.: Маънавият, 2010. 71-77 б; Очилов Э. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. –Т.: O‘zbekiston, 2013. – 134 б; Бобур. Рисола. –Т.: Абу Матбуот-Консалт, 2011. – 32 б; 3. Холманова. «Бобурнома» лексикаси тадқиқи: Филология фанлари докт. ...дис. – Т., 2009; Д.Хошимова. «Бобурнома» матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи: Филология фанлари докт. ...дис. – Т., 2018; Каримов Р. «Бобурнома»даги шеърлар хорижий тилдаги таржималарининг қиёсий таҳлили: Филология фанлари номз. ...дис. – Т., 2003; М.Абдуллаева. «Бобурнома» ва «Шажараи турк»нинг қиёсий-типологияк таҳлили. Филология фанлари номз. ...дис. – Самарқанд, 2004; Сулаймонов И. «Бобурнома»да ғолиб ва мағлуб шахс руҳий ҳолатининг бадий тасвири: Филология фанлари докт. ...дис. – Самарқанд, 2020; Ҳазратқулова Э. Адабий-тарихий асарларда бадий ижод масалалари («Бобурнома» ва «Тарихи Рашидий» асосида): Филология фанлари бўйича фалс. докт. (PhD) ...дис. – Т., 2022.

Tadqiqotning vazifalari:

tarixiy-nasriy asarlar genezisi, taraqqiyoti va o'zbek nasri rivoji masalalarini ochib berish;

“Boburnoma”da muallifning tasvirlash uslubi va poetik mahoratini asoslash; asarda ifodalangan adabiy muhit, ijodkor shaxs tasviri, adabiy tanqid muammolarini aniqlash;

asarda tasviri berilgan hukmdorlar shaxsiyatini aniqlash, ularga muallifning munosabati masalasini ochib berish;

“Boburnoma”da tasvirlangan ruhoniyyat kishilari shaxsiyatini yoritish orqali muallif e'tiqodi masalasini ochib berish.

Tadqiqot obyekti sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning 2002-yilda nashr etilgan “Boburnoma” asari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar – ijodkor va hukmdorlar tasvirida muallifning uslubi masalasini belgilash tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tavsifiy, qiyosiy-tipologik, biografik, psixologik usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“Boburnoma”da muallifning adabiy-estetik qarashlaridagi novatorona yondashuv hamda u bilan munosabatda bo'lgan davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida ishtirok etgan tarixiy shaxslarni tasvirlashdagi rostgo'ylik, samimiylilik, adolat tamoyillari asosida soddalik, qisqalik, qiyoslash uslubi aniqlangan;

asarda tasvirlangan adabiy muhit, adabiy jarayon, an'anaviy janr va poetik shakllar davomiyligi, ijodkor shaxsi, mavqeyini, insoniy qiyofasini konkret ko'rsatishdagi muallifning munaqqid sifatidagi xolisligi ochib berilgan;

“Boburnoma”da tarixiy shaxslar tasviri orqali davr voqeligining yoritilishi, ruhoniyyat kishilari shaxsiyati va e'tiqodi masalasi, buning muallif hayotiy faoliyati bilan aloqadorlik jihatlari, hukmdor shaxs va uning xarakteri ochib berilib, muallif shaxsiyatida tipiklik va o'ziga xoslik, hukmdorlik hamda diniy-ma'rifiylik xususiyatlari asoslangan;

tarixiy-nasriy asarlarning paydo bo'lishi, taraqqiyoti, o'zbek nasrining shakllanish jarayonlarida “Boburnoma”ning muhim memuar manba sifatidagi ahamiyati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

davr va hudud adabiy muhiti, adabiy an'analari, ijodiy tamoyillarini o'rganishda “Boburnoma” asari muhim manba bo'lib xizmat qilishi asoslangan;

asarda turli sohalarga doir ma'lumotlar bilan birga adabiyotshunoslik, adabiy tanqidga oid qarashlarning yetakchilik qilishi dalillangan;

“Boburnoma”da tasvirlangan ijodkor va hukmdor shaxslar orqali davr adabiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy muhit holatiga oid ma'lumotlar isbotlangan;

mumtoz adabiyot tarixi, o'zbek adabiy tanqidi tarixi, adabiyot nazariyasi, tarixiy poetika kabi darsliklarning mazmunan boyishiga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda keltirilgan nazariy qarashlar asl ilmiy manbalar va mumtoz adabiyot namunalaridan olingani, muammoning aniq qo'yilgani, amalga oshirilgan tahlillar tarixiy-qiyosiy, tavsifiy,

qiyosiy-tipologik, tahlil usullari vositasida asoslangani, nazariy xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, Boburning adabiy-estetik qarashlari va ilmiy mulohazalari, uning adabiyotshunos sifatidagi mahorati, an'anaga yondashish va novatorlik mahorati aniqlanib, poetik mazmun borasidagi ilmiy-nazariy qarashlar amaliy ko'rsatma sifatida foydalanishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati. "Boburnoma"da tarkibi tarixan shakllangan adabiyotshunoslik janrlarining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi asoslangan bo'lib, o'zbek adabiy tanqidchiligi tarixi fanining o'quv darsliklari va qo'llanmalarini yaratishda, davr adabiy muhiti, undagi badiiyat va uslub muammosi, adabiy portret yaratish mahorati, adabiy janrlar davomiyligi, ijodkor va hukmdorlar shaxsiyati masalalarining yoritilishi, o'zbek adabiyoti tarixini yangi ma'lumotlar bilan boyitishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. "Boburnoma" asarida ijodkor va hukmdor shaxslar tasviri bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tarixiy-nasriy asarlarning paydo bo'lishi, taraqqiyoti, o'zbek nasrining shakllanishi jarayonlarida "Boburnoma"ning muhim memuar manba sifatidagi ahamiyati yuzasidan olingan xulosalardan FA-A1-G004 raqamli "Qoraqalpoqlar tasavvurida ayol timsoli: etnologik tadqiqotlar" mavzusidagi fundamental loyihada belgilangan vazifalar ijrosida foydalanilgan (O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2022-yil 15-fevraldagi 17.01/31-sonli ma'lumotnomasi). Natijada loyiha ishining mumtoz nasriy asarlarda adib uslubi, adabiy muhit va adabiy tanqidchilikning o'ziga xos ilmiy qirralarini o'rganishga doir tahlillar bilan boyishiga xizmat qilgan.

"Boburnoma"da muallifning adabiy-estetik qarashlaridagi novatorona yondashuv hamda u bilan munosabatda bo'lgan davr ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida ishtirok etgan tarixiy shaxslarni tasvirlashdagi rostgo'ylik, samimiylilik, adolat tamoyillari asosida soddalik, qisqalik, qiyoslash uslubiga oid nazariy xulosalaridan FA-F-1-005 raqamli "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunoslik tarixini tadqiq qilish" mavzusidagi fundamental tadqiqot loyihada foydalanilgan (O'zR FA Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutining 2022-yil 15-fevraldagi 17.01/30-ma'lumotnomasi). Natijada o'zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi ijodkorlar, ruhoniyyat kishilari tazkirasining qoraqalpoq adabiyotshunosligi janrlariga ta'siri masalasini oydinlashtirish uchun xizmat qilgan.

Asarda tasvirlangan adabiy muhit, adabiy jarayon, an'anaviy janr va poetik shakllar davomiyligi, ijodkor shaxsi, mavqeyini, insoniy qiyofasini konkret ko'rsatishdagi muallifning munaqqid sifatidagi qarashlaridan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyati bo'limi qoshidagi "Sadoqat" adabiy to'garagi mashg'ulotlarida foydalanilgan (O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Samarqand viloyati bo'limining 2022-yil 24-yanvardagi 10-sonli ma'lumotnomasi). Natijada to'garak mashg'ulotlarining mazmunan ko'lamdorligi va ta'sirchanligi oshishi kuzatilgan.

“Boburnoma”da tarixiy shaxslar tasviri orqali davr voqeligining yoritilishi, ruhoniyyat kishilari shaxsiyati va e’tiqodi masalasi, buning muallif hayotiy faoliyati bilan aloqadorlik jihatlari, hukmdor shaxs va uning xarakteri ochib berilib, muallif shaxsiyatida tipiklik va o’ziga xoslik, hukmdorlik hamda diniy-ma’rifiylik xususiyatlari haqidagi ilmiy ma’lumotlaridan O’z MTRKning “Madaniyat va ma’rifat” teleradiokompaniyasining 2022-yil 10-fevraldagi ”Buyuk yurt allomalari” nomli adabiy-ma’rifiy ko’rsatuvi va eshittirishi tayyorlanishida dissertatsiya xulosalaridan amaliy foydalanilgan (O’z MTRKning 2022-yil 10-fevraldagi 02-02-03/30-sonli ma’lumotnomasi). Natijada ko’rsatuv va eshittirishlarning ilmiy ko’rsatkich va dalillar bilan boyishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma’ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o’tgan.

Natijalarning e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha 16 ta ilmiy ish, jumladan, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 4 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda, 5 ta respublika, 3 ta xalqaro konferensiya to’plamlarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Kirish va uch asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Umumiy hajmi 148 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi, o’rganilish zarurati asoslangan bo’lib, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotda foydalanilgan metodlar ko’rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Adabiy-tarixiy asarlar va “Boburnoma”ning badiiy xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobi uch fasldan iborat. Bobning birinchi fasli **“O’zbek nasrining shakllanishi va taraqqiyoti”** deb nomlangan. O’zbek mumtoz adabiyotining uzoq o’tmish tarixida nasriy asarlar muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Shu bois adabiyot tarixini nasriy asarlarsiz tasavvur etib bo’lmaydi. Ma’lumki, nasrning ham o’ziga xos qonun-qoidalari, ifoda usullari mavjud. Dastlabki nasriy asarlarning yaratilishi bevosita xalq og’zaki ijodi bilan bog’liq holda shakllangan bo’lsa, keyinchalik bu jarayon O’rxun-Enasoy yodnomalari, “Qissasi Rabg’uziy”, “Bang va Chog’ir”, “O’q va Yoy”, “Boburnoma”, “Miftoh ul-adl”, “Gulzor” va boshqa bir qator asarlarda davom etdi. O’zbek adabiyotida tom ma’nodagi nasriy asarlar taraqqiyoti, shubhasiz, Alisher Navoiy nomi bilan bog’liqdir. Navoiy ham adabiy merosining katta qismini nasr tashkil etishini quyidagicha ifodalagan edi:

Nazm-u nasrim kotibi taxminshunos,

Yozsa, yuz ming bayt etar erdi qiyos. ("Lison ut-tayr").

Uning "Munshaot", "Vaqqiya", "Majolis un-nafois", "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti Sayyid Hasan Ardasher", "Holoti Pahlavon Muhammad", "Nasoyim ul-muhabbat", "Tarixi anbiyo va hukamo", "Tarixi muluki Ajam", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Mezon ul-avzon", "Mahbub ul-qulub" kabi asarlari nasrning go'zal namunalari sanaladi. Nasriy asarlar yozish an'anasi uzoq o'tmishga ega bo'lib, uning Sharq adabiyotidagi qadimiy namunalariga hind adabiyotidagi "Ramayana", "Panchatantra", "Kalila va Dimna"; arab adabiyotidagi

As-Saolibiyning "Yatimat ad-dahr" tazkirasi, Ibn-al-Asrning "Komil fid-ta'rix", Ibn Xallikonning "Vadayot al-a'yon", shuningdek, arab tilida yaratilgan Forobiy, Ibn Sinolarning ayrim asarlari, fors-tojik adabiyotida Sa'diyning "Guliston", Nosir Xisravning "Safarnoma", Jomiyning "Bahoriston" kabi asarlarini keltirish mumkin. Ahamiyatli jihati shundaki, Boburning "Boburnoma" asarida ushbu an'ana muvaffaqiyatli davom ettirildi va o'zining eng yuksak cho'qqisiga ko'tarildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur o'zining "Boburnoma" asari orqali o'zbek nasri taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shdi, deyish mumkin. O'ziga xos tasvirlash uslubiga ega bo'lgan mazkur asarda muallif hayoti davomida Movarounnahr, Xuroson, Hindistonda o'zining ko'rgan-kechirganlari, boshidan o'tkazgan voqeahodisalar, adabiy va ilmiy muhit, madaniy hayot, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar haqida ma'lumotlar beradi. Bunda muallif o'ziga xos uslubda har bir shaxs, har bir joy haqida fikr bildirganda, reallikka, haqqoniylikka qat'iy amal qiladi. Bu xususida Boburning o'zi asarida ham shunday yozgan edi: *"Bu bitilganlarning araz shikoyat emas, rost hikoyatturkim, bitibturmen. Bu mastur bo'lg'onlarning maqsud o'zining ta'rifi emas, bayoni voqii bu edikim, tahrir etibturmen. Chun bu tarixda andoq iltizom qililibturkim, har so'zning rostini bitilgay va har ishning bayoni voqi'ini tahrir etilgay..."*⁴. Asarda muallif hayoti davomida o'zi bilan munosabatda bo'lgan juda ko'plab shaxslarning xarakterini, insoniy qiyofasini konkret tasvirlarda ko'rsatib berishga harakat qiladi. "Boburnoma" orqali o'quvchi ko'z o'ngida o'sha davr manzarasi, turli-tuman shaxslar (hukmdorlar, siyosiy va harbiy kishilar, ijodkorlar, rassom va san'atkorlar va h.k.) portreti jonli tarzda namoyon bo'ladiki, bu muallifning o'ziga xos tasvir uslubidan dalolatdir. Ushbu faslda "Boburnoma"ning o'zbek nasri tarixidagi muhim ahamiyati, o'ziga xos original tasvirlashda muallif mahorati kabi masalalar batafsil yoritildi.

Bobning ikkinchi faslida **"Boburnoma" asarining adabiy-tarixiy ahamiyati** masalasi tadqiq etilgan. Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsiyati va ijodi haqidagi ma'lumotlar u hayotlik paytida yozilgan bir qator manbalarda uchraydi. Xususan, Mirzo Muhammad Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarida⁵, Muhammad Solihning "Shayboniynoma" dostonida⁶ va boshqa bir qancha

⁴ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Шарк, 2002. – Б. 151.

⁵ Мирзо Мухаммад Хайдар Аъзий. Тарихи Рашидий. Нашрга тайёрловчи О.Жалилов. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 476 б.

⁶ Мухаммад Солих. Шайбонийнома. Таҳрир хайъати А.Қаюмов ва бошқ. Нашрга тайёрловчи ва сўзбоши муаллифи Э.Шодиев. – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. 336 б.

tazkiralarda uchratish mumkin. Shuningdek, Sayfi Chalabiyning (XVI asr) “Sayohatnoma” asarida⁷ ham Boburning Shayboniyxon bilan kurashi tasvirlari, uning Ubaydullaxonga yo‘llagan maktubi, shuningdek, Hindistonni qo‘lga kiritishidan Humoyun zamonigacha bo‘lgan Hindiston tarixi haqida ma’lumotlar berilgan.

Tom ma’nodagi boburshunoslik, asosan, XX asrdan boshlandi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu davrda turkiy xalqlar adabiyotida Bobur ijodini o‘rganish, asarlarini tarjima qilish va nashr ettirish ancha jonlanganini kuzatish mumkin. Jumladan, turk olimi F.Ko‘pruluzoda Bobur asarlarining qo‘lyozma nusxalarini topib, ular haqida ma’lumotlar beradi, she’rlarini nashr qildiradi. Shu bilan u Turkiyada boburshunoslik ilmiga asos soladi.

Ma’lumki, Boburning “Boburnoma” asari mutaxassislar tomonidan ancha keng o‘rganilgan. Asarni dastlab Mirzaxon ibn Bayramxon fors tiliga, Vitsen golland tiliga, J.Leydin, V.Erskin, A.Beverij, U.Tekstonlar ingliz tiliga, Pave de Kurteyl, Jon Lui Bakie Grammon fransuz tiliga, Mirzo Haydar Ko‘ragoniy, Rashid Attor Navdiy urdu tiliga, Rashit Rahmati Arat turk tiliga, Mixail Sale rus tiliga, Yugjit Navalpuriy hindchaga tarjima qilishgan. Shuningdek, asarning yapon, xitoy, arab tillaridagi tarjimalari ham amalga oshirildi.

Asarning tanqidiy matnini yaratish yo‘lida bir qator ishlar amalga oshirildi. Bu jarayonda, albatta, yaponiyalik olim E.Mano⁸ (1995) va S.Hasanov (2002) amalga oshirgan ilmiy-tanqidiy matn mukammal ishlardan hisoblanadi⁹.

“Boburnoma”ning hozirgacha o‘n yettita qo‘lyozma nusxasi mavjud bo‘lib¹⁰, asar dunyoning o‘n yetti tiliga tarjima qilingani ham asarga bo‘lgan qiziqishning katta ekanidan dalolat beradi.

“Boburnoma” manbalarda turlicha nomlar bilan, xususan, “Voqeoti Boburiy”, “Tuzuki Boburiy”, “Tavorixi Boburiy”, “Boburiya”, “Boburnoma” kabi nomlarda beriladi. Muallifning o‘zi, asosan, “Vaqoye” tarzida tilga oladi. Gulbadanbegim o‘zining “Humoyunnoma” asarida ham “Vaqoye”, “Voqeanoma” shaklida qo‘llaydi. Asarning turk tiliga tarjima qilgan va ilmiy matnini tayyorlagan olim Rashid Rahmati uni “Vaqoye” (Bobur xotiroti) deb nomlaydi. Bundan boshqa biror bir nashrda asar bu tarzda nomlanishi ko‘zga tashlanmaydi. Shu o‘rinda asarni muallif nomlaganidek “Vaqoye” deb nomlash va keyingi nashrlarda ham bunga amal qilish maqsadga muvofiq bo‘lardi, deb o‘ylaymiz.

XVI asr voqealarini aks ettiruvchi “Tavorix-i guzida – Nusratnoma”, “Shayboniynoma”, “Badoye’ ul-vaqoye”, “Mehmonnomayi Buxoro” va boshqa bir qancha asarlar o‘zbek va tojik tillarida yaratildi. Bu asarlarda o‘sha davr tarixiy voqealari “Boburnoma”dan farqli o‘laroq mavjud an’ana tarzda yoritib berilgan. Ulardan faqat Zayniddin Mahmud Vosifiyning “Badoye’ ul-vaqoye” asari o‘zining ilmiy-adabiy qiymati bilan alohida ajralib turadi. Shu jihati bilan mazkur asar “Boburnoma”ga o‘xshab ketadi. Ta’kidlash lozimki, bu ikki asar o‘zaro memuar

⁷ Evliya Çelebi. Evliya Çelebi Seyahatnamesi. O.Ş.Gökyay (ed.). – Istanbul, 1996. – 376 s.

⁸ Zahir Ad-din Muhammad Babur. Babur-nama.(Vaqayi). Critical edition based on four chagatay text with introduction and notes by Eyji Mano. Kyoto, Syokado, Printed by Nakanishi Printing Co., LTD Kyoto. – Japan, 1995-1998.

⁹ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Шарк, 2002. – Б. 72.

¹⁰ Asar dunyoning 17 ta tiliga 32 marta tarjima qilingan.

janriga mansubligi jihatidan o'xshashlik kasb etsa-da, ammo ulardagi tasvirlash uslubida mualliflarga xos bo'lgan xususiyatlar bilan farq qiladi.

“Boburnoma” muallif tomonidan original bir uslubda, dabdabalilik, manmanlikdan xoli, oddiy va shu bilan birga jonli hamda obrazli tarzda yozilganligi bilan shu tipdagi asarlardan tubdan farq qiladi. Shu boisdan mazkur asarga bo'lgan qiziqish bugungi kunda tobora kuchayib bormoqda.

Bobning uchinchi faslida **“Asarda adabiy uslub masalasi va muallif mahorati”** o'rganilgan. “Boburnoma” yuzasidan bir qator tadqiqotlar, o'rganishlar olib borilgan bo'lsa-da, asarning uslubi masalasi alohida aspektda tadqiq etilmagan. Asarni turli soha mutaxassislari o'zlarining tadqiqot yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda o'rganishgan, tadqiq va tahlil etishgan, lekin uning adabiy uslubi masalasi atroflicha yoritilmagan. Ma'lumki, har bir ijodkor, yozuvchi o'ziga xos bo'lgan uslubda ijod qiladi. Shu bois har bir ijodkorning uslubini belgilash, yo'nalishini aniqlash muhim vazifalardan sanaladi. Adabiyotshunoslikda mazkur masala xususida ham turlicha fikrlar mavjudligini kuzatish mumkin. Xususan, Abdurauf Fitrat ijodiy uslub haqida shunday yozadi: “Go'zal san'atlarda har millatning o'ziga maxsus uslubi bordir. Navoiy o'zining “Majolis un-nafois” kitobida ba'zi shoirlarning tarjimaiy holini yozg'andan keyin “turkona” yozadir, “Turkona she'rlari bor” deb ko'rsatadirkim, bu “turk uslubida yozadir” demakdan boshqa narsa emas”¹¹. Ko'rinadiki, bunda Fitrat turkiy adabiyotdagi uslub masalasini ilgari surmoqda.

“Boburnoma”ning adabiy uslubi masalasiga e'tibor beradigan bo'lsak, unda, asosan, ikki xil uslub qo'llanilganini kuzatish mumkin:

1. Xotiralarni bayon qilish uslubi.
2. Voqealar izidan borib, ularni qayd etish yo'li.

Muallifning bunday yo'l tutishi, birinchidan, adabiy-estetik talablar natijasi bo'lsa, ikkinchidan, asarning ilmiy-badiiy qimmatini oshirishga ham xizmat qilganidir. Shu bois asarga faqat memuar-esdalik sifatida qarash emas, balki ma'lum estetik ehtiyoj talabi sifatida yaratilgan deb qaralsa, muallifning maqsadi oydinlashgan bo'ladi.

“Boburnoma”ning janri masalasida ham mutaxassislar turlicha yondashishganini ko'rish mumkin. Bu haqda maxsus tadqiqot olib borgan olim Hasan Qudratullayev o'zining tadqiqotida¹² ancha keng to'xtalib o'tadi. Olim o'zining kuzatishlari natijasida asarni “badiiy-voqeiy-ilmiy sarguzasht” asar sifatida baholaydi. Shuningdek, ushbu tadqiqotda olim asarning badiiy xususiyatlarini ancha sinchkovlik bilan talqin qiladi, o'zining asosli mulohazalarini taqdim etadi.

Keyingi davrda amalga oshirilgan tadqiqotlardan olim M.Abdullayevaning “Tarixiy-nasriy asarlar badiiyatining qiyosiy tahlili” (“Boburnoma” va “Shajarayi turk”ning badiiy qiyosi) nomli ishida asarni “badiylashgan tarixiy memuar”

¹¹ Фитрат А. Адабиёт қоидалари. — Т.: Фан., 1995. — Б. 21.

¹² Қудратуллаев Ҳ. «Бобурнома»нинг тарихий-адабий ва услубий таҳлили (Навоий, Бобур, Хондамир ва Восифий насрининг қиёсий таҳлили асосида): Филология фанлари докт. ...дис. — Т.: 2003. — Б.342.

tarzida talqin etadi¹³. Shu o'rinda kitobxonni o'ziga tortadigan, "Boburnoma"ning ta'sir kuchini oshirgan va uning o'qishlilikini ta'minlagan omillardan biri undagi shoirona zavq bo'lgan¹⁴ini alohida ta'kidlash lozim.

"Boburnoma" asarida muallifning voqealarni bayon etishda tavsifiylikka, ularga munosabat bildirishda, baho berishda rostgo'ylik, xolislikka asoslanishi, tarixiy shaxslar portretini berishda obyektiv yondashishi, tabiat manzaralari va narsa-buyumlar tasvirida muallif mahorati, tarixiy voqealarni yoritishda ilmiylik mezoniga amal qilish va shu bilan birga har doim badiiylikka intilish asarning o'ziga xos original bir uslubda maydonga kelishiga sabab bo'lgan.

Asarning uslubi masalasida yuqorida keltirilgan adabiyotshunos H.Qudratullayevning fikrlarini ma'qullagan holda ba'zi mulohazalarni bildirib o'tishni joiz deb topdik. Birinchidan, asarning badiiyligini ko'rsatuvchi omillar sifatida uning tarkibida she'riy parchalar va badiiyat kasb etuvchi lavhalar kiritilgan. Bu jihatlar asarning badiiyligini oshirish bilan birga asarning o'qishli bo'lishini ham ta'minlagan. Ikkinchidan, asarda muallif olimlarga xos ziyraklik bilan har bir narsaga diqqat qaratishi, mushohada yuritishi va ma'lum ilmiy xulosalarini ifodalashi kuzatiladi. Bobur faqat ijodkorlarga, ularning asarlariga baho berib qolmasdan, boshqa sohalar haqida ham mulohazalar yuritadi. Xususan, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, tarix, geografiya, dinshunoslik, iqtisod, insho, siyosat, tibbiyot va boshqa ko'plab sohalar haqida muhim ma'lumotlar keltiradi, ularga muallif o'zining ilmiy mulohazalarini bildiradi. Uchinchidan, asarda tarixnavislik uslubi mavjud. Muallif ma'lum voqea-hodisani tasvirlashda aniq sanalar, raqamlarni keltiradi, ularga o'zining munosabatini bildiradi. Shuningdek, Bobur voqealar tasvirida xronologik ketma-ketlikka qat'iy amal qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **"Boburning adabiy-estetik qarashlari masalasi"** deb nomlangan bo'lib, mazkur bob uch faslni o'z ichiga oladi. Bobning **"Boburnoma"da adabiy muhit ifodasi** nomli birinchi faslida XV asrning ikkinchi yarmi XVI asr boshlaridagi Movarounnahr va Xuroson hududlarida mavjud adabiy muhitlar faoliyati tadqiq etilgan. "Boburnoma"da muallif o'zi tasvirlagan hudud haqida ma'lumot berganda, albatta, u yerdagi ijod ahli va adabiy muhit xususida ham batafsil ma'lumotlar berishga harakat qiladi. Jumladan, asarda Samarqand, Andijon, Kobul, Hirot shaharlaridagi ijodkorlar, adabiy davrlar haqida ta'sirchan lavhalar beriladi. Bu jarayonda ham muallif o'ziga xos uslubda yondashganini kuzatish mumkin. Bobur ma'lum tarixiy shaxslar, xususan, Umarshayx mirzo, Husayn Boyqaro, Sulton Mahmud mirzo, Boysunqur mirzo, Sulton Ahmad mirzo kabi temuriy hukmdorlar shaxsiyati, faoliyati haqidagi tahlillarida Farg'ona, Samarqand, Hirotidagi adabiy-madaniy hayot xususida ham batafsil ma'lumot berish orqali o'quvchini o'sha davr haqida atroflicha xabardor qilishga intilganini ko'rish mumkin.

Adabiy muhit ijod ahli uchun barcha sharoitlar yaratilgan, ularning ijodiy kamoloti rivojida ijobiy ta'sirga ega adabiy davra sanaladi. Ma'lumki, bunday adabiy muhitlar, asosan, poytaxt shaharlarda shakllangan va uning rivoji, taraqqiy

¹³ Абдуллаева М. Тарихий-насрий асарлар бадиятининг қиёсий таҳлили («Бобурнома» ва «Шажараи турк»нинг бадий қиёси): Филология фанлари докт. ...дис. – Т.: 2008. – Б.76.

¹⁴ Тожибоева М. Жаҳид адиблари ижодида мумтоз аъёнлари: Филология фанлари докт. ...дис. – Т.: 2017.

etishida ma'lum bir hukmdorning ta'siri nihoyatda zarur bo'lgan. Biz buni Bobur zamonida ham, undan keyingi davrlarda ham kuzatishimiz mumkin. Hirot adabiy muhitida Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy, Qo'qonda Amir Umarxon, Xivada Ogahiy va Muhammad Rahimxon Feruz (Soniy) kabilarni keltirish mumkin.

Bobur Samarqand adabiy muhiti haqida ancha keng ma'lumot berishga harakat qiladi. Bilamizki, Samarqand muhitida iste'dodli ijodkorlar ko'p bo'lgan. Xususan, Bobur Boysunqur mirzo haqida shunday deydi: "...nasta'liq xatini xeyli xo'b bitur edi. Naqqoshlikda ham iligi yomon emas edi. She'rni ham tavre aytur edi. Odiliy taxallus qilur edi. She'riy devon tartib qilg'uncha bo'lmaydur edi... Samarqandda Boysunqur mirzoning g'azallari oncha shoyi'durkim, kam uy bo'lg'ay erdikim, mirzoning ash'ori ul uyda bo'lmag'ay edi"¹⁵. Bundan Boysunqur mirzoning ancha iste'dodli shoir bo'lganini, Samarqand ahli ham she'riyatga, ijod ahliga nisbatan e'tiborsiz bo'lmaganini anglash mumkin.

Ushbu davr adabiy muhitlari haqida fikr yuritganda, albatta, Hirot adabiy muhiti xususida alohida to'xtalish lozim bo'ladi. Bu adabiy muhit Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy homiyligi va rag'batlari sabab ancha shuhrat topgan edi, buni Bobur ham ko'p bor ta'kidlaydi: "... Sulton Husayn mirzoning zamoni ajab zamone edi, ahli fazl va benazir eldin Xuroson, bataxis Hiri shahri mamlu edi. Har kishiningkim, bir ishg'a mashg'ullig'i bor edi, himmati va g'arazi ul edikim, ul ishni kamolga tegurgay"¹⁶. Hirotadagi adabiy, madaniy hayot tasviri Alisher Navoiyning "Hayrat ul-abror" dostonida ham quyidagicha beriladi:

*Alloh-Alloh, ne Hiri, bu Hiri,
Bir-biridan turfa aning har biri*¹⁷.

Shuningdek, bu muhitda Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy rahnamoligida ilm-fan, adabiyot, san'at, miniatyura kabi sohalar ham rivoj topganligini misollar orqali ko'rsatib o'tadi. Musiqa bilan mashg'ul bo'lgan Qulmuhammad Udiy, Shayx Noyi, G'ulom Shodiy, Husayn Udiylardan tashqari kurashchi Pahlavon Muhammadning ham musiqadan yaxshi xabardorligini misollar bilan keltirib o'tadi. Bobur Hirot adabiy muhitini tasvirlashda tarixiy shaxslarni turli xil guruhlarga tasniflagan holda berganini kuzatish mumkin. Xususan, *avlodi, umarosi, sudur, vuzaro, shuaro, xushnavislar, musavvirlar, ahli nag'ma, musannif* va h.k. Ayni shu tasniflarda Boburning adabiy tanqidchi sifatidagi mahorati namoyon bo'ladi: adabiyotshunoslikning muhim jihatlariga e'tibor qaratadi, ijodkor, uning asari mazmuni va g'oyasi kabilarni chuqur ilmiy tahlil etadi.

"Ijodkor tarixiy shaxslar tasviri va adabiy-tanqidiy qarashlar in'ikosi" nomli ikkinchi faslda "Boburnoma"da tadqiq etilgan adabiy muhitlarda faoliyat yuritgan ijod ahli haqida fikrlar bayon etilgan. Asarda juda ko'p tarixiy shaxslarning adabiy portreti, ruhiy holatini ma'lum badiiylik mezonlari asosida umumlashtirib tasvirlanganini kuzatish mumkin. Muallif bu jarayonda oddiy fuqarodan tortib, davr hukmdorigacha bo'lgan tabaqa vakillari tasviriga bir xil tarzda munosabatda bo'lgani e'tirofqa loyiq sanaladi. Bobur hukmdorlar haqida

¹⁵ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Шарқ, 2002. – Б.72.

¹⁶ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Шарқ, 2002. – Б.137.

¹⁷ Алишер Навоий. Хамса / Нашрга тайёрловчи А.Ҳожирахмедов. – Т.: Янги аср авлоди, 2010. – Б.66.

fikr yuritadimi yoki oddiy shaxs haqida ma'lumot beradimi, ularga nisbatan obyektiv yondashganini, bir xil uslubda bayon qilishini ko'ramizki, bu faqatgina Boburga xos tasvirlash uslubidir. Asarda tarixiy ijodkor shaxslar adabiy portretlari tasvirlarida ham bu holatni kuzatish mumkin. Bobur tasvirlayotgan shaxsning ham tashqi qiyofasi, ham ichki olami haqida shunchalik mukammal ma'lumot beradiki, o'quvchi ko'z o'ngida ma'lum bir tipik shaxs gavdalanadi.

Bobur "Boburnoma"da Sharq tazkirachilik an'alariga muvofiq holda ijodkorlar adabiy portretlarini tasvirlashga harakat qilganini ham kuzatamiz. Unda muallif tasvir etayotgan shoir zikrida uning shaxsiyati, ijodi va davr adabiy muhitidagi o'rni kabi masalalarga o'ziga xos tarzda e'tibor qaratadi.

Bobur Hirot adabiy muhiti haqida ma'lumot berar ekan, bu muhit rivojiga beqiyos hissa qo'shgan Alisher Navoiy nomini alohida ehtirom bilan tilga oladi. Boburdan avval ham Navoiy haqida bir qancha manbalarda ma'lumotlar berilgan, ularda, asosan, an'anaviy tasvirlar ko'proq ko'zga tashlanishini aytish lozim. Bu o'rinda D.Yusupovanning *"Bobur qarashlarida esa Navoiy siymosi bilan bog'liq fikrlari o'z zamondoshlarinikidan o'ziga xosligi bilan farqlanib turadi"*¹⁸ degan fikri alohida ahamiyatga ega. Bunda ham Bobur o'ziga xos yo'ldan borganligini, original tarzda yondashganini ko'rish mumkin. Sababi *"... u ulug' o'zbek shoiri Alisher Navoiy, tojik shoiri Badriddin Hiloliy, rassom miniatyuristlardan Kamoliddin Behzod kabilar haqida so'z yuritir ekan, ularga xarakteristika berishda Boburning badiiy ijod masalalariga munosabati ham ifoda etilgan"*¹⁹. Bobur ijodkor shaxslar tasvirida ham o'zining an'anasiga amal qilib, talabchanlik bilan munosabatda bo'lganini ko'ramiz. Uning Navoiy haqidagi ma'lumotlarini sharhlagan adabiyotshunos N.Otajonov shunday yozadi: *"... u Navoiyni atigi bir sahifada g'oyibona, nihoyatda aniq va nozik tasvirlaydi. O'ylaysizki, bu ikki ulug' zot azal-azaldan xuddi Husayn Boyqaro bilan Alisherbek singari ajralmas qalin do'st bo'lgan. Navoiy qiyofasi hamda ichki dunyosini u bilan doimiy hamroh va hamsuhbat bo'lib yurgan zotlardan ham hech biri bunchalik samimiy va latif chiza olmagan bo'lsa kerak. Bunda chin insoniy hayrat va afsus ham, e'tirof va inkor ham, faxriya va nadomat ham bor. Oxir-oqibatda o'quvchi ko'z o'ngida shunday bir siymo o'zining bor bo'yi bilan gavdalanadiki, har qanday odam ham unga havas qilmay, tahsin o'qimay, haqiga duo qilmay qololmaydi"*²⁰. Alisher Navoiy siymosi "Boburnoma"ning o'n olti o'rnida turli xil munosabat bilan tilga olinadi. Dastlabki ma'lumot asarning Andijon tasviriga bag'ishlangan matnida uchraydi: *"Eli turkdir. Shahri va bozorisida turkiy til bilmas kishi yo'qtur. Elining lafzi qalam bila rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti, bovujudkim Hirida nash'u namo topibtur, bu til biladur"*²¹. Bu o'rinda Bobur Andijon ahlining tili haqida ma'lumot berish jarayonida uni Navoiy asarlarining badiiy tiliga hamohang ekaniga urg'u bermoqda.

Bobur Alisher Navoiyning davlat arbobi sifatidagi faoliyatiga e'tibor qaratib, uni *"Ahli fazl va ahli hunarg'a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma'lum"*

¹⁸ Юсупова Д. Ўзбек адабиёти тарихи (Алишер Навоий даври). – Т.: Академнашр, 2013. – Б.8.

¹⁹ Ўзбек адабиёти тарихи. 3-жилд. – Т.: Фан, 1978. – Б.75.

²⁰ Отажонов Н. Бобурнома жаҳон адабий жараёнида. – Т.: 1994. – Б. 72.

²¹ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Т.: Шарқ, 2002. – Б.34.

emaskim, hargiz paydo bo'lmish bo'lg'ay"²² deya yuqori darajada e'tirof etadi. Uning homiyligi va rag'batlari ostida kamolga yetgan bir qator ijod ahli, san'atkor, rassom, hunarmandlar haqida ham batafsil ma'lumot beradi. Shuningdek, uning davlat, yurt obodonchiligi yo'lida amalga oshirgan ishlari ham beqiyos ekanini ko'rsatib o'tadi: "*Muncha binoyi xayrkim, ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo'lmish bo'lg'ay*"²³.

"Boburnoma"da adabiy portreti tasvirlangan Shayxim Suhayliy, Muhammad Solih, Binoiy, Saidxon kabi ijod ahli, ular faoliyati haqida ham ishda atroflicha ma'lumotlar berilgan, tahlillar amalga oshirilgan.

Ikkinchi bobning **"Mutasavvuf ijodkorlar tasviri va muallif shaxsiyati"** nomli uchinchi faslida Boburning hayotiy faoliyatida muhim o'rin tutgan din peshvolari, valiy zotlar haqida ilmiy mulohazalar bayon etilgan.

